Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

Zamonaviy Axborot texnologiyalar yordamida maktab o’quchilarini kasbga yo’naltirish.

Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi, Andijon mashinasozlik instituti, Stajiyor o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola bo’lajak pedagoglarning pedagogik faoliyatida yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mukammallik cho’qqisiga ko’tarishda hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’limga yo’naltirish xususidadir.Umum ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning maktab o’quvchilari bilan olib boradigan ta’lim tarbiya ishlarida zamonaviy axborot texnologik yondashuvi-umum ta’lim sohasida ta’lim sifatini yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Аннотация: В данной статье речь идет о воспитании молодежи на вершину мастерства с помощью современных информационных технологий в педагогической деятельности будущих педагогав и направлении их на образование с помощью соввеменных информационных технологий. Современный информационно – технологический подход в воспитательной работе приводит дальнейшему повышению качества образования в области общего образования.

Abstract: This article is about raising young people to the peak of excellence with the help of modern information technologies in the pedagogical activities of future pedagogues and directing them to education with the help of modern information technologies. The modern information technology approach in educational work leads to further improvement of the quality of education in the field of general education.

Kalit so’zlar: axborot texnologiyalari,kompyuter,AKT,axborot,zamonaviy texnologiya,informatika,kompyuter texnologiyasi,axborot kommunikatsiyasi,axborot resursi,videoproektor,multimedia,printer,skaner,dasturiy vosita,virtual,electron

Ключевые слова: информационные технологии, компьютер, ИКТ, информация современные, технологии, информатика, компьютерные технологии, информационная связь , информационный ресурс, видеопроектор, мултимедиа, принтер, сканер, программное обеспечение, виртуальний, электрон.

Key words: information technology, computer, ICT, information, modern technology, informatics, computer technology, information communication, information resource, video projector, multimedia, printer, scanner, software, virtual electron.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi (2023). Zamonaviy Axborot texnologiyalar yordamida maktab o’quchilarini kasbga yo’naltirish. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/710

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bugungi kunda barcha sohada bo’lgani kabi umum ta’lim sohasida ham ijobiy o’zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan muhtaram prezidentimizning “2020-2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo’nalishida uzluksiz ta’lim sifatini yanada oshirish chora tadbirlari to’g’rida” gi Qarorida umum ta’lim sohasida ilg’or xorijiy tajribani hisobga olgan holda o’quvchilarni har tomonlama zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’lim, tarbiya sifatini yanada yaxshilashga olib kelinmoqda.

Hozirda barcha sohalarda bo’lgani kabi ta’lim sohasini ham axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Bu esa kompyuter va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish barcha masalalarning echimini hal qiladi,ya’ni axborotlarni uzatish va qayta ishlash, bilim,ko’nikma va malakalarni to’liq shakillantirishni kafolatlaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi yo’nalishlarda amalga oshiriladi.

- Axborot - kommunikatsion texnologiyalar o’rganish ob’ekti sifatida,ya’ni o’quvchilar bilim olish jarayonida yangi axborot texnologiyalar,shu jumladan kompyuter, multimedia, masofadan o’qitish, internet texnologiyalari va ularning tarkibiy qismlari hamda foydalanish sohalari bo’yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo’ladilar ;

- Axborot – kommunikatsion o’qitish vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalar asosida o’quvchilarga bilim beriladi, hamda boshqa fanlarni o’qitishda zamonaviy axborot texnologilaridan foydalaniladi. Darslar va laboratoriya mashg’ulotlari kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etiladi, shu bilan birga fanlararo integratsiya amalga oshiriladi;

- Ta’lim jarayonini boshqarish sifatida, ya’ni ta’lim muassasasining o’quv, ma’naviy – ma’rifiy va ilmiy ish faoliyati samaradorligini oshirishda axborot – kommunikatsion texnologiyalari asosida axborotlashtirish, tahlil qilish hamda o’quv tizimini yaratish va amaliyotga tadbiq etish;

Maktabdagi ta’lim jarayonida o’quvchilar AKT yordamida matn bilan ishlashni , tasviriy ob’ektlarni va ma’lumotlar bazasini yaratishni, elektron jadvallardan foydalanishni o’rganadi. O’quvchilarni axborot yig’ishning yangi usullarini ulardan foydalanishni o’rganadi, ularning dunyo qarashi kengayadi. Darslarda AKT ning ishlatilishi o’qishga bo’lgan motivatsiyasini va oquvchilarning fanga hamda axborot texnologiyalariga qiziqishini yanada oshiradi. Kompyuter AKT bilan birgalikda ta’lim sohasida, o’quvchilarni o’qish va ijodkorligida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ilk bor ta’lim AKT shaxsning bo’lajak kasbining asosiy instrumenti bo’ladigan vaziyat vujudga keladi. Ta’lim haqiqatdan ham hayotimizga butun hayot faoliyati davomida kirib kelaveradi.

AKT ni qo’llashda shaxsning barcha qobiliyatlarini – qiziquvchanlik, ahloq – odob, ijodkorlik, muloqot va estetik qobilyatlarini ro’yobga chiqarishga harahat qilish kerak. Bu qobilyatlar keraklicha yuqori darajada ro’yobga chiqishi uchun pedagogning AKT sohasida yuqori malakalarga ega bo’lishi zarur. Pedagoglarda bu

bilimdonlikni rivojlantirishni oliy o’quv yurtidanoq kerakli AKT bilimiga ega bo’lishi zarur. AKT sohidagi bilimdonlikni quyidagilar bilan ifodalasa bo’ladi. Zamonaviy axborot muhitida tajribani baxolash va faoliyatda qo’llash qobilyati : shaxsiy ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirishga harakat qilish: umumiy kommunikativ madaniyatning axborot almashishini tashkillashtirishda tajriba va naziriy bilimlarning mavjudligi:axborotni olish, tanlash ,saqlash, qayta ishlash, o’zgartirish , taqdim etish, uzatish, va qo’llash madaniyatini taqdim etishdir.
Hozirgi kunda bola har qadamda – uyda, internet klublarda axborot texnologiyalariga duch kelayotgani barchamizga ma’lum. Shunda bizda savol tug’iladi barcha yoshlar zamonaviy axborot texnologiyalaridan to’g’ri va unumli foydalanayaptimi? Buning uchun biz qanday chora tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak?
Bizga ma’lumki yurtimizdagi umum ta’lim maktablarida asosan o’quvchilar 11 – 16 ya’ni 5 – 7- sinfdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalarini o’rganishlari uchun maxsus o’quv fani ya’ni informatika va axborot texnologiyalari fani joriy etilgan. Bu borada muhtaram prezidentimizning “ 2020 – yildagi O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi farmoni ta’lim tarbiya sohasiga oldiga yangi vazifalarni qo’ygan.
Xususan ta’limni kompyuterlashtirish faqat maktabni zarur texnika va kompyuter jihozlari bilan ta’minlashdan iborat bo’libgina qolmay, birinchi navbatda o’qituvchi va o’quvchilarning ish mahsuldorligi, hamda ta’lim samaradorligini yuqori darajalarda oshirish ko’zda tutilgan.

Hozida umum ta’lim maktablarda o’qitishni kompyuterlashtirish ikki yo’nalishda amalga oshirilmoqda. Informatika predmetini o’rganish (kompyuter – o’rganish ob’ekti) va boshqa predmetlarni o’rganishda kompyuterdan foydalanish (kompyuter – ta’lim vositasi). Shak shubhasiz, kompyuter o’quvchini o’qishga rag’batini yanada oshirib beradi. Shuningdek, o’quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko’ra taqdim etishni izga solib beruvchi imkoniyatlarini ochadi. To’g’ri bajargan topshiriqlar uchun rag’batlantirish orqali ham o’quvchiga motivatsiya berish mumkin.
Ma’lumki hayotimizda yanada chuqurroq o’rin olib borayotgan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning boshlang’ich sinflardanoq aniq imkoniyatlarini belgilash, ushbu jarayonning pedogogik , fiziologik, gigiyenik, va tibbiy asoslarini chuqur o’rganish, bu sohada rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalarni O’zbekiston ta’limini amaloiyotiga joriy etish kechiktirib bo’lmaydigan vazifalardan hisoblanmoqda.

Axborot texnologiyalari o’quv predmeti sifatida o’quvchilardan mantiqiy va texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilishini hisobga olib uni bolalarga iloji boricha yoshlikdan o’rgatish zarur . Chunki yuqori sinflarda o’quvchilarning tafakkur yuritishi ,dunyo qarashi va uslubi etrlicha shakillanib , uni o’zgartirish anchagina qiyin kechadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ma’lum bir shart - sharoitlar, ya’ni axborot resurslari, kompyuter, videoproektor, multimedia vositalari, printer, skaner, hamda zamonaviy dasturiy vositalar mavjud bo’lishi lozim.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalari vositalarining asosiy tarkibiy qismi: o’quv uslubiy ta’minoti , virtual labaratoriya , elektron darslik (ED) , electron o’quv kutubxonasi, xalqaro internet tizimlari va boshqalar muhim ahamiyatga o’ringa ega bo’ladilar .

O’quv jarayonining samaradorligi va mukammalligi axborotlarni bilim oluvchiga qanday tarzda berilishiga, ular tomonidan qandayb qabul qilinishiga va ularni amalyotga qanday tadbiq qilinishiga bog’liq . Multimedia texnologiyalarini o’rganayotgan pedagog va iqtisodiy jarayonlar to’g’risidagi har bir axborotni ta’lim oluvchilarga harakatli, ovozli va videoli ko’rinishlarda berish uchun bayon qilib beradi. Bu esa katta hajmdagi axborotni berish uchun ketadigan vaqtni tejash bilan birga , ularni tangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Boshqacha qilib aytganda , ta’lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e’tibor eng avvalo o’qituvchiga hamda o’quvchiga zarur bo’lgan sharoitni yaratishga , kopyuterlarni o’quv jarayonida samarali qo’llinishiga , ya’ni multimediali electron o’quv jarayonlarida samarali qo’llanishiga qaratilishi lozim.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, boshqa sohalarda bo’lgani kabi ta’lim sohasida ham zamonaviy axborot texnologiyalarni o’rni beqiyos. Axborot texnologiyalari ta’lim sohasida izchil rivojlanib bormoqda. Xo’sh umum ta’lim sohasida axborot texnologiyalarini o’quvchilarda qachondan rivojlantirish mumkin?Odatda axborot texnologiyalari maktab bolalarini boshlang’ich sinfdanoq axborot texnologiyalarga yo’naltirish maqbul. Bunda o’quvchilarda nafaqat ta’lim sohasidan balkim dunyoviy qarashdan ham ancha oldingan o’sadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo’nalishida uzluksiz ta’lim sifatini yanada oshirish chora tadbirlari to’g’rida” gi qarori PQ -106 sonli qarori.
2. Aripov M.M, Imomov T, Irmuhammedova R.M, Sagatov M.V, Xaydarov A.T, Yaqubov A. X , Informatika axborot texnologiyalari . O’quv qo’llanma 1-qism. Toshkent :<<TDTU>>.
3. D.M. Amirov va boshqalar , Axborot kommunikatsiya va texnologiyalari. Izohli lug’at Toshkent 2010 – 576-b.
4. Internet manbalar:
   www.ziyonet.uz
   www.edu.uz
   www.pedagog.uz